XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 17 - noyabr VI-87-272-7-95-K/22 Ishtixon tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Ishtixon tumanidagi maydon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, qabriston hamda ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori va Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 12-oktabrdagi 08-08898-sonli ekspert xulosasi hamda Ishtixon tuman adliya bo‘limi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish yuzasidan 2022-yil 8-noyabrdagi 5/22-23-sonli xulosasiga asosan Ishtixon tumanida 1 ta maydon, 1 ta istirohat bog‘i, 3 ta ziyoratgoh, 118 ta qabristonlar hamda 202 ta nomsiz va nomi qonun talablariga javob bermaydigan ko‘chalarning nomlari o‘rganilib chiqilib, ijobiy xulosa berilganligini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, 87-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Ishtixon tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi O.Tojixonovning Ishtixon tumanidagi maydon, istirohat bog‘i, ziyoratgoh, qabriston hamda ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotidagi qaror loyihasi yanada mukammallashtirish va qo‘shimchalar qo‘shish zaruriyati tug‘ilganligi sababli navbatdagi sessiyada ko‘rib

chiqish uchun qoldirilsin.

2. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Kazakov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **K.E.Yavkochdiyev**